GLOBALLASHUV SHAROITIDA DUNYOVIY VA DINIY QADRIYATLARDA SHAXS ERKINLIGI MUAMMOLARI

Elmurotov Jamshid Shodiyorovich
Toshkent Kimyo halqaro universiteti dotsenti, PhD
Jumayev To'lqin Xolmurodovich
Toshkent Kimyo halqaro universiteti dotsenti, PhD

REZYUME

Maqolada diniy qadriyatlar hamda ularning shaxs erkinligida tutgan o'rni, dinning jamiyatda tutgan o'rni va asosiy vazifalari xususida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются религиозные сенности и их место в свободе личности, роль и место религии в общэстве.

SUMMARY

Summary: The article discusses religious values and their place in individual freedom, the role and place of religion in society.

Kalit so'zlar: erkinlik, diniy, milliy, qadriyat, e'tiqod, fikr erkinligi, shaxs erkinligi, vorislik, Zardo'sht, Budda ta'limoti, kompensatorlik, integrativlik, regulyativlik, legitimlovchilik, mafkura, urf-odat.

Keywords: freedom, religion, nationality, values, beliefs, freedom of thought, freedom of personality, inheritance, Zoroastrianism, Buddha teaching, compensation, integration, regulating, legitimacy, ideology, traditions.

Har qanday xalqning, millatning hech narsaga almashib bo'lmaydigan eng muqaddas va qimmatbaho, yuksak qadriyati uning erkinligidir. Erkinlik millatning o'lmas qadriyatlari bilan shakllangan bo'lib, u o'zining qamrovida diniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Eng avvalo, bunda dunyoviy va diniy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati juda yuqori tarzda anglanib, unda diniy e'tiqod, diniy erkinlik omillari o'zaro bir-biri bilan mutanosiblikda muvozanatda bo'ladi. Ya'ni, dunyoviy va diniy qadriyatlarda insonning yaratilishi, yashashdan maqsadi, hayotining mazmuni, e'tiqodi, erkinligi, fikr erkinligi tarixiy shakllanishi va jamiyatdagi amaliy faoliyati, insonparvarlik tamoyillarining mazmun-mohiyati o'z ifodasini topgan.

Bu haqda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono

va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.”[1] Bu g‘oyat teran chuqur va ilmiy ta’rifdan qadriyat — deyilganda, biz ma’lum millat va xalq uchun muqaddas bo‘lgan, uning butun bir shakllanish tarixini, o‘tmishini o‘zida qamrab olgan va kelajakdagi istiqbolini belgilab beruvchi ma’naviy tizimni tushunamiz. Qadriyatlarning tarixiy shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiyoti o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmaydi, balki u, kishilik jamiyati tarixining moddiy va ma’naviy qirralarini to‘laligicha o‘zida mujassam aylagan holda keksa avlod tomonidan yosh avlodga in’om etiladigan vorislikdir. Demak, barcha mas’uliyat vorislikni qabul qilib oluvchi yosh avlod zimmasiga yuklatiladi. Ya’ni, vorislikni qanday qabul qilib olgan bo‘lsa, uni shundayligicha emas, balki undan oqilona foydalanib, uning yo‘qolib ketayotgan qirralarini saqlab qolib, ochilmagan jihatlarini ochib berib yana bir qancha yangiliklar qo‘shgan holda topshirish majburiyati yuklatiladi. E’tibor qiladigan bo‘lsak, bu yerda falsafiy fanlar qonunlarida mujassam bo‘lgan, inkorni inkor qonuni va vorisiylik tamoyili amal qilishini kuzatishimiz mumkin. Albatta, bugungi kunda barkamol avlodni ma’naviy va axloqiy jihatdan yuksak darajada tarbiyalash jarayonida ularni dunyoviy va diniy qadriyatlardan uzluksiz boxabar qilib borish, ayni damda anglab olingan dolzarb vazifalardan biridir. Shu mazmunda, qadriyatlarning millat uchun ezgu va muqaddas bo‘lgan qirralaridan biri diniy qadriyat bo‘lib, u millat va xalqning qalbida, tafakkurida tez so‘nmasligi oqibatida qadrlidir. Dunyoviy va diniy qadriyatlarda shaxsning e’tiqod erkinligi, diniy qadriyatlar tizginida uning olib borayotgan amaliy faoliyati, muammolari hamda yechimlari masalaning asosini tashkil qiladi.

Jumladan, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari tarixida shaxs erkinligi, e’tiqod erkinligi g‘oyalari Zardo‘sht va Budda ta’limoti, Mazdak ijtimoiy-siyosiy faoliyati ta’sirida shakllangan. Tarixda Forobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Yusuf Xos Xojib, Ibn Rushd, Nizomulmulk kabi mutafakkirlarimiz ijodlarida bunyodkor g‘oyalarning yuksak qirralari keng rivojlantirilgan. Shu sababdan diniy qadriyatlarda shaxs erkinligi va e’tiqod erkinligi muammolarini o‘rganish jarayonida ular ta’limotining o‘ziga xos tomonlarini kengroq bayon qilish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, bunyodkor g‘oyalarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va

[1] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. -Toshkent: “Ma’naviyat”, -4-bet.

rivojlanishi har bir tarixiy taraqqiyotda, ma'naviy hayotda, dinga bo'lgan munosabatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida shaxs erkinligini ilmiy o'rganish natijasida har bir bosqichiga obyektiv yondashgan holda to'g'ri xulosalar chiqarish, uning tajribasi, ijobiy jihatlaridan foydalanish shu kunning muhim masalalaridan biridir. E'tibor qiladigan bo'lsak, yangi davr falsafasida fransuz faylasufi R. Dekartdan boshlab shaxs erkinligi haqida dualistik g'oya shakllanishiga yo'l ochildi. Bunda birinchi o'ringa o'z-o'zini anglash "Men" tushunchasi bilan birlashtirib yuborildi. Nemis faylasufi I.Kant fikricha, shaxs erkinligi o'z-o'zini anglashi orqali shakllanadi, bu holat unga hayvonlar olamidan farqlab, o'zining "Men" ini axloqiy qoidalarga bo'ysundirish imkoniyatini beradi.[1] Shu jihatdan ham inson omili va u yaratgan ezgu qadriyatlar uning ibtidosidan to hozirga qadar o'zining yuksakligi, ulug'ligi bilan borliqda o'z o'rniga ega. Chunonchi, uning bu faoliyati Kant aytganidek, o'z-o'zini anglash orqali yuzaga keladi.

Hozirgi zamon falsafa va ijtimoiy-gumanitar fanlarida shaxs erkinligi tushunchasiga bir necha talqin berilgan. Biz ushbu talqinlardan biriga qo'shilgan holda o'z ta'rifimizni ishlab chiqishga harakat qildik. Ya'ni, shaxs erkinligi deb muayyan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sharoitlariga bog'liq bo'lgan, individual holatda intelektual va irodaviy sifatlarga ega bo'lgan inson faoliyatiga aytiladi. Tarixan turli diniy-falsafiy tizimlar shaxs erkinligini o'rganishga yoki ilmiy talqin qilishda o'zlaricha yondashganlar. Agar antik davr falsafasida shaxs erkinligiga nisbatan, asosan, erkin munosabatlar, deb qaralgan bo'lsa, xristianlik ta'limotida shaxs va uning erkinligini maxsus mohiyat, "Individual substansiya", aqliy xususiyat, nomoddiy ruhning sinonimi deb tushunilgan.

Tarixiy taraqqiyot natijasida shaxs erkinligi, e'tiqod erkinligi mavjud ijtimoiy tuzumning o'zgarishi, taraqqiy etishi va rivojlanishi bilan bog'liq hodisadir. Bu voqelik o'z navbatida jamiyatda dunyoviy va diniy qadriyatlarning shakllanishi, eski din o'rniga yangisining kelishi yoki ta'limotlar, nazariyalar, e'tiqodlar almashinuviga ta'siri va eng asosiysi dinning jamiyatdagi vazifalari bilan izohlanadi. Insoniyat tafakkur-tarzi shakllanishining dastlabki davrlarida paydo bo'lgan din xalqlar hayoti bilan bog'liq bo'lgan holda rivojlangan, mukammallashgan, moslashgan va sekin-asta diniy dunyoqarashni, diniy tizimni vujudga keltirgan. Natijada ma'lum ijtimoiy - madaniy va diniy - axloqiy vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga olgan. Bunday funksiyalar insoniyat kamolotining yuqori bosqichlarida, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi.

[1] Kant I. Soch. T. 4.Ch.2. -M.: 1965. –S. -132.

Ta’kidlash lozimki, bu o‘rinda dinning, ayniqsa, islomning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tutgan o‘rni, vazifalari, fan va madaniyat bilan o‘zaro ta’siri xususida fikr yuritish o‘rinlidir. Dinning, diniy qadriyatlarning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Har qanday din yoki qadriyat o‘z homiylari uchun to‘ldiruvchi, ovutuvchi (kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda dinga, diniy qadriyatlarga ehtiyoj hosil bo‘lishini olib qaraylik. U o‘z hayoti, tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlari jarayonida shaxsiy, ijtimoiy maqsadlariga yetishishi ilojsiz bo‘lib ko‘ringanda ma’naviy - ruhiy ehtiyoj vujudga kelgan. Chunki inson hayotida quvonchli va tashvishli onlarda, orzular ro‘yobga chiqishi ilojsiz bo‘lgan paytda insoniyatning dinga, diniy qadriyatlarga ehtiyoji ortib borgan, bunday holat jamoa bo‘lib yashash talablarida boshlangan. Din va diniy qadriyatlar, dunyoqarash bu o‘rinda ma’naviy - ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, axloqiy jihatdan tasalli beruvchilik, sabr-toqatga o‘rgatuvchilik vazifasini bajaradi.

2. Din dinlararo o‘z ta’limot tizimini vujudga keltirib, unga e’tiqod qiluvchi shaxs va jamoani shu ta’limot doirasida saqlashga, birlashtirishga harakat qiladi. Bu dinlarning birlashtiruvchilik (integrativlik) funksiyasi deyiladi. Bunda din muayyan ijtimoiy, etnik, axloqiy va ma’naviy hayotning o‘z ta’siri doirasida bo‘lishni ko‘zda tutadi. Masalan, islom dini o‘tmishda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotiga, axloqiy, ma’naviy munosabatlariga, hattoki adabiyot va san’atiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

3. Din insonlar hayotini, diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish (regulyativlik) funksiyasini bajaradi. Har qanday dinlarning o‘ziga xos diniy qadriyatlari, ma’lum urf - odat, marosim va bayramlari bo‘lib, ularni o‘z vaqtida, diniy ta’lim-tarbiya va talab asosida bajarilishi shart qilib qo‘yiladi. Chunki, bunday talab o‘zaro tartibni saqlab qolish omillarini yuzaga keltiradi.

4. Din insonlarning, diniy tashkilotlar faoliyati birligini, jamiyat bilan shaxsning o‘zaro aloqasini, birdamligini ta’minlovchi xususiyat - aloqa bog‘lashlik vazifasiga ham egadir. Bunda konkret bir dinga e’tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog‘liq bo‘lishi, qadriyatlar, urf - odat va ibodatlarni jamoa bo‘lib ado etish ko‘zda tutiladi. Cherkov, masjid va diniy tashkilotlar dinning bu funksiyasini amalga oshirishga ko‘maklashadi, ayni paytda, bu holatni nazorat qilishni o‘z zimmalariga oladi va uni tashkillashtiradi.

5. Har qanday din ijtimoiy tizim sifatida muayyan cheklovlarsiz bo‘la olmaydi. Shuning uchun u qonun darajasiga ko‘tarilgan axloq normalarini ishlab chiqadi. Bu bilan u legitimlovchilik — qonunlashtiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Shuningdek, diniy qadriyatlar vazifalarining falsafiy, nazariy jihatlari ham mavjud bo‘lib, insonning yashashdan maqsadi, hayotining mazmuni, dorul fano, dorul baqo — dunyo haqidagi masalalarga o‘z munosabatlarini bildirishdan iborat. Har qanday dunyoviy va diniy qadriyatlarning ma’lum tarixiy sharoitda bajaradigan funksiyalari yig‘indisi uning ijtimoiy-falsafiy vazifasini belgilaydi. Dinning, diniy qadriyatlarning inson ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy hayotiga, erkinligiga ta’siri hamma vaqt ham bir xil bo‘lgan emas. Ma’lum davrlarda u vaqtga, makonga, sharoitga qarab sezilarli darajada o‘zgarib boradi. Bu o‘z navbatida dinning, diniy qadriyatlarning o‘ziga xos xususiyati deb tushuniladi. Ijtimoiy-falsafiy fanlar dunyoviy va diniy qadriyatlarning shaklanishi vujudga kelishi va rivojlanish tarixini, uning ta’limotini, axloqiy ta’sirini paydo bo‘lishi hamda faoliyat darajasini o‘rganish, uni tahlil qilish maqsadlari bilan shug‘ullanadi. Bu holat jamiyat taraqqiyoti jarayonida dunyoviy va diniy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy hodisalarni — mafkura va aqidalar, urf - odat va marosimlarning talab va tartiblarini o‘rganish, ular faoliyatini o‘z vaqtida nazorat va tahlil qilishni ko‘zda tutadi.

Olimlarning diniy qadriyatlarni rivojlantirish, uning ochilmagan qirralarini ochish borasidagi olib borgan izlanishlari muhim xulosalar chiqarishga olib kelgan: **birinchidan,** har qanday diniy qadriyat, dinga bog‘liq an’analar, yangiliklar ijtimoiy hodisa hisoblanib, ijtimoiy ong shakllaridan biridir; **ikkinchidan,** diniy tasavvur, e’tiqod va qadriyatlar jamiyat moddiy, ma’naviy, axloqiy taraqqiyotining muayyan ijtimoiy sharoitlari ta’sirida turli - tuman shakl, ko‘rinish va muhim ahamiyat kasb etgan; **uchinchidan,** ibtidoiy diniy tasavvurlardan tortib, milliy dinlar jahon dinlarigacha bo‘lgan dinlar rivojlanishi tamaddunini e’tirof etish diniy qadriyatlar rivojlanishi, shakllanishi haqida birdan bir to‘g‘ri ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Xalqimiz axloqiy ma’naviyatini yuksaltirishda dunyoviy qadriyatlar qamrovida shakllangan diniy qadriyatlarimiz qamrovida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, inson erkinligi, huquq va manfaatlarini hurmat qilish, millatlararo totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi namunali qadriyatlar tobora muhim mazmun-mohiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bu borada islom dini tutgan o‘rni va uning hozirgi davr uchun ahamiyati haqida Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan shunday ta’kidlanadi. “Islom dinining madaniy qadriyatlari va an’analari, jahon miqyosida islom dini qoldirgan juda ulkan ma’naviy meros nafaqat mintaqamizning tarixiy rivojlanishiga ko‘p jihatdan qo‘shilgan hissani, balki uning

hozir shakllanib borayotgan sifat jihatdan yangi qiyofasini ham belgilab bermoqda”.[2] Shu sababdan, ham har qaysi xalq, millat o‘zining milliy qadriyatlarini o‘z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishini shart, deb hisoblash, ayni damda anglab olingan zaruratdan holi bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham insoniyat o‘zining tarixiy taraqqiyoti va istiqboli davomida o‘zi yaratgan muqaddas qadriyatlarga hamma vaqt ham sodiq bo‘lib qolmagan. Chunki, faqat bir narsa ularni bunday to‘yg‘udan begonalashtirib turishga turtki bo‘lib turgan. Bu insonning ibtidosidan to hozirga qadar o‘zining global muammo sifatida tomirlarini keng qulochda yoygan o‘zaro manfaat, nafs balosidir. Zero, jamiyatda shu illat bo‘lmaganda insoniyat butunligicha, to‘laligicha komillikka erishgan bo‘lmasmidi?! O‘ylashimizcha, insoniyat o‘zi tarixan yaralgan davrdan boshlab, ibtidosidan manfaatlar, nafs botqog‘iga botib, o‘zini tobora shunday illatlar girdobiga tortib bormoqda. U bu illatni o‘zining “tomorqa” orqasidan qaraganda “muqaddas qadriyatiga” aylantirib olgan. Bu insoniyatning eng katta ham ma’anaviy ham moddiy global muammosi. Albatta, bunday sharoitda xalq, millat, inson qanday qilib o‘zining erkinligiga, erkin fikrligiga, e’tiqod erkinligiga yoki komilligiga intilib harakat qila olsin?! Afsus, ularning bunday faoliyatini amalga oshirishida eng katta to‘siq “Men”ini yuqori qo‘yish, faqat o‘z manfaatini o‘ylash, boylik orttirish kabi illatlar borligini unutmasligimiz kerak.

Bunday kimsalar erkinlikni, ayniqsa, shaxs erkinligini poymol qilib jamiyat taraqqiyotiga ham putur yetkazadilar. Chunki, har qanday davlatchilikning shakllanishi, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi munosabatlar murakkab ijtimoiy holatlar asosida tashkil topadigan ijtimoiy jarayondir. Uning murakkabligi ijtimoiy maqsadlarni qaror toptirishda manfaatlarning turli-tumanligi bilan ifodalanadi. Zero, manfaatlar yechimi esa, aksariyat hollarda o‘zaro ixtiloflar, kurashlar bilan o‘z bag‘rida turli tahlikali tahdidlarni saqlab qolganligi bilan harakterlanadi. Bu borada davlatchilik tarixiga umuminsoniyat kechmishining uzviy bir qismi sifatida nazar soladigan bo‘lsak, manfaatlar tarixi bilan bog‘langanligini, ayni damda, davlatchilikning yuzlab kashf qilinganligining guvohi bo‘lamiz. Garchi manfaatlar ofat, kulfat va talofat manbai bo‘lishiga qaramasdan, u insoniyatning yashash shartiga aylanganligini kuzatamiz. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi, insoniyat ulkan moddiy va madaniy merosga ega bo‘lishi barobarida o‘z munosabatlarini tajovuzkorlik asosda qurishi va uni ustuvor bilib, taraqqiyot manbaiga aylantirishi, qolaversa, unga o‘zining aqliy salohiyatini safarbar qilishining

[2] Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 1998. -57-bet.

sabablari nimada? Nega ushbu vositalarning axloqsiz ekanligini yoxud yovuzlik faqat ikkinchi bir yovuzlikni keltirib chiqarishi va bunda g‘oliblar bo‘lmasligini anglagani barobarida undan maqbul vosita sifatida foydalanib kelinadi? Afsuski, insoniyat o‘z tarixida mohiyatan o‘xshash bo‘lgan tarixiy tahdidlarning yangi ko‘rinishlarini takrorlab keladi. Undan chiqdi, tahdid insondan tashqari hodisa emas, aksincha, uning tabiatida yashiringan so‘ngra, amaliy faoliyatga ko‘chib o‘tadigan hol ekan. Shu tariqa manfaatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra insonlar tomonidan adolatli va adolatsiz manfaatlarga bo‘linib kelingan. Natijada, xalqlar va millatlar o‘rtasida manfaatlar talashuvi asosida urushlar kelib chiqqan. Har bir xalqda o‘z haqiqati bilan yo‘g‘rilgan adolatini uqdirish mayli ustuvor bo‘lganligini ko‘ramiz. Shu sababdan urushlarning moddiy manfaatdorlik asosi mafkuraviy vajlar, diniy niqoblar bilan berkitib kelingan.

E. Fromm o‘zining “Insoniyatning hozirgi holati” nomli maqolasida insoniyat tarixi yaratgan fojialar ko‘lamini yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy illatlarni turlarga ajratadi.[3] Ya’ni insonning ekspluatatsiya qilishga bo‘lgan istagi, mol-dunyo to‘plashga ishtiyoqi kabi ruhiy holatlarini ochib beradi. Ayni ana shu ruhiy holatlar mohiyatida insonning e’tiqodsiz, axloqsiz faoliyati yashiringanligini e’tirof etadi. Xulosa qilish mumkinki, insoniyat o‘z tarixida ekspluatatsiyaning ko‘plab ko‘rinishlarini bartaraf etish barobarida uning boshqacha, nisbatan taraqqiy etgan turlarini kashf etib kelgan. Davomli iste’molchiga aylanib qolgan inson, faqat moddiylik darajasining mavjudlik qiymati bilan ijtimoiy munosabatlarini quradi va shu tariqa “tenglik” falsafasini tengsiz holatda takomillashtiradi. Bu savolga Freydning “Biz bundan buyon ham insonning tabiiy istak-mayllari oldida aql-idrokimiz ojiz ekanligini tan olamiz va bunday deyishga haqlidirmiz. Ammo, aql-idrok ojizligiga qaramay, odamni hayvoniylikdan insoniylikka chaqirishdan tolmaydi. Aql-idrok doimiy mag‘lubiyatlarga qaramay, bir zamon kelib, ustun kelishini hali juda uzoq zamonlar kutishga to‘g‘ri keladi, ammo bunday zamon cheksiz uzoq ham emas”,[4] degan fikri bilan oydinlik kiritish mumkin. Ammo Freyd so‘ngi jumlani insoniyat qismatiga achinish nuqtayi nazaridan qo‘shib qo‘ygan bo‘lsa ajab emas.

Bizning nazarimizda, bugungi kunda dunyoviy va diniy qadriyatlarning qadrsizlanishiga asosiy sabab xalqaro miqyosda ijtimoiy axloq me’yorlarining muhimligini anglab yetishdagi qiyinchilikda namoyon bo‘lmoqda. Dunyoning yaxlitligi va uning istiqbolini faqat yuksak axloqiy munosabatlar kafolatlashi mumkin. Zero, axloqiy me’yorlarsiz inson o‘zining erkinligiga, fikr erkinligiga, e’tiqod erkinligiga erisha olmaydi. Inson hayoti davomidagi amaliy faoliyati jarayonida qadriyatlar bilan hamnafas yashaydi, ya’ni qadriyatlar insonning istiqboli uchun mash’ala vazifasini bajaradi. Shu tariqa insonning erkinligi

[3] Fromm. E. Insonning hozirgi holati. // Jahon adabiyoti. -Toshkent: 2000. –B. 113.
[4] Sveg S. Zigmunt Freyd. Ruhiy tahlil san’ati. // Jahon adabiyoti. -Toshkent: 2000. –B. 134.

va boshqa fazilatlari qadriyatlarda mujassam bo‘ladi, ayni paytda bu sharqona demokratiyaning muhim va asosli ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.